

**QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH ILMIY-TADQIQOT
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.05/13.05.2020.T.112.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

XAZIYEV SALAVAT ASXATOVICH

**CHO‘LBOP O‘RGICH-TO‘PLAGICH KESADIGAN PICHOG‘INING
SHAKLI VA PARAMETRLARINI ASOSLASH**

**05.07.01 – Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya mashinalari. Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya
ishlarini mexanizatsiyalash**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Gulbahor – 2025

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора
философии (PhD) по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of
philosophy (PhD) on technical sciences**

Xaziyev Salavat Asxatovich

Cho‘lbor o‘rgich-to‘plagich kesadigan pichog‘ining shakli va
parametrlarini asoslash..... 3

Хазиев Салават Асхатович

Обоснование формы и параметров режущего ножа пустынного
косилка-копнителя..... 19

Khaziev Salavat Askhatovich

Justification of the shape and parameters of the cutting knife of the desert
mower-stacker..... 35

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 39

**QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH ILMIY-TADQIQOT
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.05/13.05.2020.T.112.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI**

XAZIYEV SALAVAT ASXATOVICH

**CHO‘LBOP O‘RGICH-TO‘PLAGICH KESADIGAN PICHOG‘INING
SHAKLI VA PARAMETRLARINI ASOSLASH**

**05.07.01 – Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya mashinalari. Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya
ishlarini mexanizatsiyalash**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Gulbahor – 2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/T2933 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.qxmiti.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Tolibayev Alpisbay Yerjanbayevich
texnika fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Rasmiy opponentlar:

Norchayev Davron Rustamovich
texnika fanlari doktori, professor

Alimova Feruza Abdukadirovna
texnika fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat agrar universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/13.05.2020.T.112.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "12" 06 soat 10⁰⁰ daqiqa majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 110800, Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumani, Gulbahor shaharchasi, Samarqand ko'chasi, 41-uy. Tel.: (+99871) 601-07-04, e-mail: qabulxona@qxmiti.uz).

Dissertatsiya bilan Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (499 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 110800, Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumani, Gulbahor shaharchasi, Samarqand ko'chasi, 41-uy. Tel.: (+99871) 601-07-04, e-mail: qabulxona@qxmiti.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "27" 05 kuni tarqatildi.
(2025-yil "27" 05 daqiqa 57 raqamli reestr bayonnomasi).



A. To'xtaqo'ziyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, professor

B.P. Artikbayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy koubi,
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori,
katta ilmiy xodim

R.R. Nudaykuliye

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
texnika fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda arid yaylovlarni o'zlashtirish, ulardan yuqori hosil olishda qo'llaniladigan resurstejamkor, ish sifati va unumi yuqori bo'lgan ozuqabop cho'l o'simliklarini yig'ishtiradigan mashinalarni ishlab chiqish va qo'llash yetakchi o'rinni egallamoqda. Hozirda dunyo bo'yicha ozuqabop cho'l o'simliklarining har yili 20,0 mln. gektar maydonda yetishtirilishini hisobga olsak¹, ularni yig'ishtirishda energiya-resurstejamkor, ish sifati va unumi yuqori mashinalarni ishlab chiqish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu jihatdan ozuqabop cho'l o'simliklarini yig'ishtiradigan mashinalarni ishlab chiqish va qo'llashga katta e'tibor berilmoqda.

Jahonda tabiiy cho'l yaylovlarida ozuqabop cho'l o'simliklarini yig'ishtirishning resurstejamkor yangi texnologiyalari va texnika vositalarini ishlab chiqish, mavjudlarini resurstejamkorlik yo'nalishida takomillashtirishga doir ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda tabiiy cho'l yaylovlarida o'simlik poyalarining sifatli kesilishini ta'minlaydigan resurstejamkor mashinalarni ishlab chiqish va ular ish organlarining maqbul parametrlarini asoslash bo'yicha maqsadli ilmiy izlanishlarni olib borish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Respublikamiz qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida mehnat va energiya sarfini kamaytirish, resurslarni tejash, qishloq xo'jalik ekinlarini ilg'or texnologiyalar asosida yetishtirish va yuqori unumli qishloq xo'jaligi mashinalarini ishlab chiqish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda, jumladan tabiiy cho'l yaylovlarida ozuqabop cho'l o'simlik poyalarini yig'ishtirishda kam energiya sarflab, barcha texnologik jarayonlarni sifatli bajarilishini ta'minlaydigan texnika vositalarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasida, jumladan, "...qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tarmog'ini modernizatsiyalash, diversifikatsiya qilish va barqaror o'sishini qo'llab-quvvatlash uchun xususiy investitsiya kapitali oqimini ko'paytirishni nazarda tutuvchi sohada davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish mexanizmlarini joriy qilish, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish, fermer xo'jaliklarida mehnat unumdorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash"² vazifalari belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda jumladan, cho'l o'simliklarini yig'ishtirishda kam nobud bo'lishini ta'minlaydigan cho'l bop o'rgich-to'plagich mashinasini ishlab chiqish, kesadigan pichoqlarining agrotexnik talablar darajasida ish sifatini kam energiya sarflagan holda ta'minlaydigan parametrlarini asoslash bo'yicha maqsadli ilmiy izlanishlarni olib borish muhim o'rin tutadi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash

¹ <http://www.nrcs.usda.gov>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5853-son Farmoni.

to'g'risida"gi PF-5853-son, 2020-yil 2-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida pillachilik va qorako'lchilikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'risida"gi PF-6059-son, 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonlari, 2017-yil 16-martdagi "Chorvachilikda iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2841-son hamda 2018-yil 14-martdagi "Qorako'lchilik sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3603-son Qarorlari va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. "Energetika, energiya va resurstejamkorlik" ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Qurg'oqchil hududlarning tabiiy ozuqa yerlaridan foydalanish texnologiyasini takomillashtirish, shuningdek, tabiiy yaylovlardan pichan tayyorlash ishlari hamda ularni amalga oshirishning texnologik usullarini ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlar bilan xorijda V.I.Momotenko, I.P.Shvan-Guriyskiy, S.I.Dmitriyeva, Z.S.Shamsutdinov, R.M.Chalbash, I.O.Ibragimov, M.Maxmudov, O.S.Marchenko, V.A.Filonenko, B.A.Goldvarg, J.Sisotov, V.V.Safonov, M.Shukurov va Ye.S.Farafonova va boshqalar shug'ullangan.

Respublikamizda esa I.Yu.Ayxodjayeov, V.G.Malkov, L.Sh.Aliqulova, Ye.X.Sayfi, M.Abdullayev, A.N.Sadirov, B.Qurbonov, N.Sodiqov, B.ATABAYEV va boshqalar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan.

Ko'rsatilgan tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan texnologiya va texnika vositalari qishloq xo'jaligini ishlab chiqarishida muayyan ijobiy natijalarga erishilgan holda foydalanib kelinmoqda. Ammo, respublikamizda cho'l o'simliklari poyalarini sifatli kesish uchun kesadigan pichoqlarning shakli va parametrlarini asoslash masalasi yetarlicha o'rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining QX-Atex-2018-229 "Qurg'oqchil yaylovlarni degradatsiyadan himoya qilish va ularning mahsuldorligini oshirishning samarali texnik yechimlarini ishlab chiqish" (2018-2020 yy.) mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ozuqabop cho'l o'simliklarini pichanga o'rish uchun mo'ljallangan KPP-3 o'rgich-to'plagich rotorli barabani kesadigan pichog'ining shaklini tanlash va parametrlarini asoslash orqali uning ish sifati va yig'ish to'liqligini oshirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi tadqiqot vazifalari belgilab olindi:

tabiiy cho'l va yarim cho'l yaylovlaridan pichan tayyorlash uchun mexanizatsiya vositalarining texnologik va konstruktiv yechimlarini tahlil qilish;

arid yaylovlar sharoitining o'ziga xos tomonlari, istiqbolli cho'l-ozuqabop o'simliklarning xossalari o'rganish;

cho'lbop o'rgich-to'plagich kesadigan pichog'ining absolyut tezligi, tig'i qirralarining o'simlik poyasiga kirish jarayonidagi holati va kesish burchagini nazariy asoslash;

cho'lbop o'rgich-to'plagich kesadigan pichog'ining shakli va parametrlarini asoslash bo'yicha eksperimental tadqiqotlarni o'tkazish;

asoslangan tur va parametrlarga ega bo'lgan pichoqlar bilan jihozlangan cho'lbop o'rgich-to'plagichning tajriba nusxasini tayyorlash va uning xo'jalik sinovlarini o'tkazish hamda iqtisodiy ko'rsatkichlarini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti. Cho'lbop o'rgich-to'plagich kesadigan pichog'i tomonidan bajariladigan texnologik jarayon.

Tadqiqotning predmeti. Cho'lbop o'rgich-to'plagich kesadigan pichoqlarining ish jarayonlarini ifodalovchi matematik modellar va parametrlarini aniqlash imkonini beradigan analitik bog'lanishlar, o'rgich-to'plagichning agrotexnik va energetik ish ko'rsatkichlarini ularning parametrlari va agregat harakat tezligiga bog'liq ravishda o'zgarish qonuniyatlari.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida nazariy mexanika, matematik statistikaning qonun va qoidalari, eksperimentlarni matematik rejalashtirish hamda mavjud me'yoriy hujjatlarda (GOCT 34265-2017, GOCT 20915-2011, GOCT 28722-2018, O'zDSt 3216:2017, RD Uz 63.03-98) belgilangan usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

cho'lbop o'rgich-to'plagich rotorli barabanining konstruksiyasi agrotexnik talablar darajasida ozuqabop cho'l o'simliklar poyalarini o'rib yig'ishtirishini ta'minlashi lozimligi shartidan ishlab chiqilgan;

cho'lbop o'rgich-to'plagich kesadigan pichoqlarining konstruktiv parametrlari va shakllari ozuqabop cho'l o'simliklar poyalarining parchalanish darajasi minimal bo'lishi lozimligi shartidan aniqlangan;

o'rgich-to'plagich kesadigan pichog'ining tebranma harakati va absolyut tezliklari cho'l-ozuqabop o'simliklarining poyasiga kirish paytida sirpanib kesishni ta'minlashini hisobga olgan holda aniqlangan;

rotorli barabani kesadigan pichoqlarining kesish va o'tkirlanish burchaklari hamda cho'lbop o'rgich-to'plagich harakat tezligining maqbul qiymatlari o'simlik poyasining parchalanish darajasi va o'rib olingan ozuqa massasining to'liqligini ifodalovchi regressiya tenglamalarini birgalikda yechish orqali aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

cho'lbop o'rgich-to'plagich kesadigan pichoqlarning konstruksiyasi ishlab chiqilgan va parametrlari asoslangan;

ishlab chiqilgan cho'lbop o'rgich-to'plagich kesadigan pichoqlari qo'llanilganda cho'l o'simliklari poyalarini parchalanish darajasining kamayishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi izlanishlarning samarali usullar va o‘lchov vositalaridan foydalanilgan holda o‘tkazilganligi, cho‘lbop o‘rgich-to‘plagich kesadigan pichoqlarning parametrlarini nazariy jihatdan asoslashda nazariy mexanika va oliy matematikaning asosiy qonun va qoidalariga amal qilinganligi, tajribalar natijalariga matematik statistika usullari bilan ishlov berilganligi, nazariy va amaliy tadqiqotlar natijalarining o‘zaro mosligi, ishlab chiqilgan kesadigan pichoqlar bilan jihozlangan cho‘lbop o‘rgich-to‘plagich dala sinovlari natijalari ijobiyliги va amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati cho‘lbop o‘rgich-to‘plagich kesadigan pichoqlarining kam energiya sarflagan holda agrotexnik talablar darajasidagi ish sifatini ta‘minlaydigan parametrlarining asoslanganligi hamda olingan analitik ifodalardan boshqa shunga o‘xshash o‘rgich-to‘plagich ish organlarining parametrlarini asoslashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan kesadigan pichoqlar bilan jihozlangan cho‘lbop o‘rgich-to‘plagich qo‘llanilganda ozuqabop cho‘l o‘simliklari poyalarini kesishda uvalanish darajasining kamayishi va terim to‘liqligining oshishiga erishilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. “Cho‘lbop o‘rgich-to‘plagichi kesadigan pichog‘ining shakli va parametrlarini asoslash” bo‘yicha olingan natijalar asosida:

kesadigan pichoqlar bilan jihozlangan cho‘lbop o‘rgich-to‘plagichga dastlabki talablar va texnik topshiriq ishlab chiqilgan hamda Intellektual mulk markazining foydali modelga “Shinalar bosimini nazorat qilish g‘ildiragi” FAP 02087 va ixtiroga “O‘roq-maydalagich rotori” IAP 7674 patentlari olingan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 12-martdagi 05/01-05/02-05/04-03-76-son ma‘lumotnomasi). Natijada kesadigan eksperimental pichoqlar bilan jihozlangan cho‘lbop o‘rgich-to‘plagichning konstruksiyasini ishlab chiqish imkoni yaratilgan;

ishlab chiqilgan kesadigan pichoqlar bilan jihozlangan cho‘lbop o‘rgich-to‘plagich Jizzax viloyati Forish tumani fermer xo‘jaliklarida joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 12-martdagi 05/01-05/02-05/04-03-76-son ma‘lumotnomasi). Natijada tajribaviy kesadigan pichoqlar bilan jihozlangan cho‘lbop o‘rgich-to‘plagich yordamida ozuqabop cho‘l o‘simliklari poyalarini kesishda uvalanish darajasini 1,88 % ga kamayishiga va terim to‘liqligini 98,5 % ga oshishiga erishilgan;

taklif etilgan cho‘lbop o‘rgich-to‘plagichning sanoat nusxalarini ishlab chiqish va tayyorlash uchun loyiha-konstruktorlik hujjatlari (dastlabki talablar va texnik topshiriq) “BMKB-Agromash” AJ da loyihalash jarayoniga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 12-martdagi 05/01-05/02-05/04-03-76-son ma‘lumotnomasi). Natijada asoslangan parametrlarga ega bo‘lgan kesadigan pichoqlarlar bilan jihozlangan cho‘lbop o‘rgich-to‘plagichning sanoat nusxalarini ishlab chiqarish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.


Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 18 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan hamda Intellektual mulk markazining 1 ta foydali modelga va 1 ta ixtiroga patentlari olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 116 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obykti va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, ishning aprobatsiya natijalari, e‘lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tabiiy yaylovlardan pichan tayyorlash tahlili. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari”** deb nomlangan birinchi bobida cho‘l ozuqabop o‘simliklari poyalarini o‘rish afzalliklari, cho‘l o‘simlik poyalarni kesadigan cho‘lbop o‘rgich-to‘plagich va texnika vositalari hamda kesadigan pichoqlarning tahlili keltirilgan, kesadigan pichoqlar bo‘yicha ilgari bajarilgan tadqiqotlar tahlil etilgan va ular asosida tadqiqotning maqsad va vazifalari shakllantirilgan.



1-rasm. KPP-3 cho‘lbop o‘rgich-to‘plagichning agregatlangan holatdagi konstruktiv-texnologik sxemasi


rotor barabani 4 tomonidan hosil qilingan uloqtirish energiyasi va havo oqimi hisobiga abraziv changi chiqib ketadi.

1-rasmda Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot institutida ishlab chiqilgan va Intellektual mulk markazining FAP 02087 va IAP 7674 raqamli patentlari bilan himoyalangan KPP-3 cho‘lbop o‘rgich-to‘plagichning konstruktiv-texnologik sxemasi keltirilgan.


Ish jarayonida tirkama o‘rgichli traktor dala bo‘ylab oldinga harakatlanganda rotorli baraban 4 ning sharnirli osilgan dastagi 5 ga mahkamlangan kesadigan pichoqlar 6 mashina harakat yo‘nalishi bo‘ylab aylantirilib, o‘simlik poyalarini kesadi va ularni deflektor 1 quvuri orqali to‘rsimon orqa devorli bunker 2 ga uloqtiradi. Bu yerdan esa

Dissertatsiyaning “Arid yaylovlar tuproq-iqlim sharoitining o‘ziga xos xususiyatlari, cho‘l ozuqabop o‘simliklarining fizik-mexanik xossalari va taqqoslov sinov natijalari” deb nomlangan ikkinchi bobida yantoq va shuvoqning fizik-mexanik xossalari, cho‘lbop o‘rgich-to‘plagich pichoqlarga qo‘yiladigan agrotexnik talablar va kesadigan pichoqlarning shaklini tanlash bo‘yicha o‘tkazilgan taqqoslov sinovlarining natijalari keltirilgan. O‘simlik bo‘yi 27,08 – 41,4 cm, poya uzunligi 15,5 – 17,26 cm, poya diametri 7,1 – 8,7 mm, maysa qalinligi 10 dona/m² gacha, o‘simlik namligi 28 – 36 % oralig‘ida tashkil etdi.

Dastlabki o‘tkazilgan taqqoslov sinovlarining natijalariga ko‘ra cho‘l ozuqabop o‘simliklar poyasini sifatli o‘rish, o‘simlik poyasida bo‘ylama yoriqlar kam hosil qilish hamda keyingi o‘shni yomonlashishi va yaylovlarni to‘liq degradatsiyasiga olib keluvchi turli kasalliklar o‘chog‘ining oldini olish uchun qiya tig‘li kesadigan pichoqlarini qo‘llash maqsadga muvofiqligi aniqlandi.



α_c – pichoqning qirqish burchagi;
 η – pichoqning o‘tkirlanish burchagi
2-rasm. Egri tig‘li kesadigan pichoqning parametrlari



1 – rotorli baraban; 2 – sharnirli mahkamlangan dasta; 3 – kesadigan pichoq
3-rasm. Rotorli barabanda pichoqlarning joylashishi

Dissertatsiyaning “Cho‘lbop o‘rgich-to‘plagichning kesadigan pichog‘ining parametrlarini nazariy asoslash” deb nomlangan uchinchi bobida o‘rgich-to‘plagichga o‘rnatilgan kesadigan pichoqlarning asosiy parametrlarini asoslashga doir nazariy tadqiqotlar natijalari keltirilgan. Ushbu bobda tadqiq etilayotgan asosiy parametrlar 2-rasmda keltirilgan: kesadigan pichoqning qirqish burchagi (α_c); kesadigan pichoq tig‘ining o‘tkirlanish burchagi (η), hamda tadqiq etilayotgan kesadigan pichoqning rotorli barabanga o‘rnatilishi (3-rasm).


Pichoqning tebranma harakati va uning absolyut tezligi. Ozuqabop cho‘l o‘simliklari poyasining sifatli kesilishi absolyut tezlik vektori va pichoq tig‘ining o‘simlik poyasiga nisbatan qiyalik burchaklari yig‘indisiga bog‘liq. Agar pichoqning tig‘i o‘simlik poyasi bilan uning o‘tkirlangan tomonlaridan biriga to‘g‘ri kelsa

kesish yuz bermaydi. Bunday holda poya o‘simlik o‘qi bo‘ylab shunchaki og‘adi yoki parchalanadi. Biroq pichoq tig‘ining o‘simlik poyasiga qiyalik burchaklarining maqbul kombinatsiyasi sirpanuvchan kesishni amalga oshirish imkonini beradi, bu esa sifatli kesishga olib keladi. Qayd etilganlarning muhimligi pichoqning nisbiy harakati dinamikasini o‘rganish zarurligini belgilaydi (4-rasm). Pichoq tig‘ining absolyut tezligi $\vec{V}_{a\acute{o}c}$, barabanning ko‘chma tezligi \vec{V}_n , pichoq tig‘ining nisbiy tezligi \vec{V}_{om} , va mashina tezligining \vec{V}_m yig‘indisi sifatida aniqlanadi, ya’ni

$$\vec{V}_{a\acute{o}c} = \vec{V}_n + \vec{V}_{om} + \vec{V}_m \quad (1)$$

Pichoqqa quyidagi kuchlar ta’sir etadi:

$$G = mg; \quad (2) \quad F_y = m\omega^2 OC; \quad (3) \quad F_b = \varepsilon_\omega S_r U^2; \quad (4) \quad F_{mp} = fN \quad (5)$$



4-rasm. Pichoqqa ta'sir etuvchi kuchlar

m – pichoqning massasi, g;
 g – erkin tushish tezlanishi, m/s²;
 ω – rotorli barabanning burchak tezligi, rad/s; OC – baraban o'qidan pichoqning og'irlik markazigacha bo'lgan masofa, mm; k_n – paruslik koeffitsienti; u – pichoqning kamradagi havo oqimiga nisbatan tezligi, m/s; f – sharnirdagi ishqalanish koeffitsienti; N – sharnirning pichoqqa reaksiyasi, N.

Pichoqning osilish nuqtasi A ga nisbatan harakatlengandagi barcha kuchlarning momentlari tenglamasi quyidagi formula bilan ifodalanadi:



$$J_{CA} \ddot{\gamma} = [-F_y \sin \beta + F_b \cos \beta + G \sin(\varphi - \gamma)] l - \text{sign}(\dot{\gamma}) F_{mp} r_A, \quad (6)$$

bunda $J_{CA} = ml^2$ moddiy nuqta sifatida qaraladigan pichoqning A nuqtaga nisbatan inersiya momenti; r_A – pichoq osilgan barmoqning radiusi.

Pichoq absolyut tezligining moduli (mashina tezligini hisobga olmagan holda) kosinuslar teoremasidan foydalanib quyidagi formula orqali aniqlanadi

$$\vec{V}_{a\bar{b}c} = \sqrt{(\omega OC)^2 + (\gamma AC)^2 - 2 \omega OC \gamma AC \cos \beta}. \quad (7)$$

(6) differensial tenglamaning analitik yechimi mavjud emas, shu sababli uni yechish uchun avtomatik qadam tanlash bilan Runge-Kutti-Felberg sonli usulidan foydalanildi. 5-rasmda pichoqning tebranish jarayonini quyidagi ma'lumotlardan foydalangan holda amalga oshirish ko'rsatilgan: barabanning aylanishlar soni $n = 960 \text{ min}^{-1}$; barabanning burchak tezligi $\omega = 100,531 \text{ rad/s}$; barabanning o'qidan



Kesadigan pichoqning tebranishlarini (γ) rotorli baraban aylanish vaqtiga (t) bog'liqligi

Kesadigan pichoqning absolyut tezligi ($\vec{V}_{a\bar{b}c}$) ni rotorli baraban aylanish vaqtiga (t) bog'liqligi

5-rasm. Rotorli baraban kesadigan pichog'ining tebranish jarayoni sharnirgacha bo'lgan masofa $R = 0,1 \text{ m}$; po'latning po'latga ishqalanish koeffitsienti $f = 0,15$; pichoqning massasi $m = 1,31 \text{ kg}$; barabanning boshlang'ich burilish

burchagi $\alpha_0 = -20^\circ$; sharnirdan pichoqning og'irlik markazigacha bo'lgan masofa $l = 0,07$ m; pichoqning osish barmog'ining radiusi $r_A = 0,008$ m; havo-mahsulot oqimi tezligining proporsionallik koeffitsienti $k = 0,4$; pichoqning radial yo'nalishga nisbatan boshlang'ich burilish burchagi $\gamma_0 = 0^\circ$; pichoqning boshlang'ich og'ish burchak tezligi $\dot{\gamma}_0 = 50$ rad/s.


Pichoqning boshlang'ich og'ish burchak tezligi baraban burchak tezligining yarmiga teng qilib olingan, $\dot{\gamma}_0 = 50$ rad/s, ya'ni po'latning yog'ochga urilishidagi tiklanish koeffitsiyentiga mos keladi $k_e = 0,5$. Aslida bu koeffitsient pastroq bo'ladi, chunki u pichoq urilayotgan o'simlikning qalinligi va boshqa xususiyatlariga bog'liq.

Kesadigan pichog'ining tebranish jarayoni so'navchi xarakterga ega bo'lib, baraban ikki marta aylanganda pichoq radial yo'nalishdagi OA nurni egallaydi. O'rgich-to'plagich rotorli barabanining aylanish vaqti 0,0625 s ni tashkil etadi. Pichoqning radial yo'nalishdan maksimal og'ishi 0,37 rad ni tashkil qiladi, bu 22° ga teng.


Bu ma'lumotlar kesadigan pichoqning og'ish kattaligini poya qalinligi va o'simlik turiga bog'liqligi materiallariga zid kelmaydi. Cho'l ozuqabop o'simliklari poyasini kesish zonasida mutloq tezlik 28 m/s gacha oshadi va o'simliklarni tirgaksiz kesish uchun yetarli bo'ladi.

Ko'p sonli nazariy hisoblashlarning natijalari shuni ko'rsatadiki, pichoqning tebranish jarayoni va uning absolyut tezligi moduli amalda barabanning boshlang'ich burilish burchagiga bog'liq emas, balki faqat vaqtga bog'liq. Bunga sabab, aylanuvchi pichoqqa ta'sir etuvchi kuchlarning kuch va momentlari markazdan qochma kuchga nisbatan kichik bo'lib, u o'z navbatida barabanning burilish burchagiga bog'liq bo'lmaydi.

Pichoq tig'ining poya tanasiga kirish paytida uning qirralari va absolyut tezlik vektorining holatini aniqlash. 6 va 7 – rasmlarda tezlik \vec{V}_{aoc} ning qiymatlarini aniqlash sxemasi va uning vertikal holatda turgan cho'l ozuqa poyasiga nisbatan α burchak ostida yo'nalishi (MN chizig'i), shuningdek pichoq tig'ining yuqori va pastki qirralari holatining θ_e va θ_h burchaklari ko'rsatilgan.



6-rasm. Pichoq tig'i qirralarining holatini aniqlash sxemasi



7-rasm. Pichoq absolyut tezlik vektorini aniqlash sxemasi

Baraban $R = OA = 0,1$ m radiusga ega. A nuqtada AKB shakldagi pichoq sharnirli osilgan; bunda pichoqning og'irlik markazi C nuqtada yotadi; K nuqta AC

chiziq va pichoq tig'ining yuqori qirrasining kesishish nuqtasi; AB pichoq tig'i AK chizig'idan $\tau = 31^{\circ}48'$ burchakka og'dirilgan; A sharnirdan pichoq tig'igacha bo'lgan masofa $AB = 0,17$ m, kesma $AK = 0,105$ m, ABK burchak $\alpha = 34^{\circ}24'$; pichoq tig'ining o'tkirlanish burchagi $\eta = 35^{\circ}30'$ ni tashkil etadi.

Pichoq tig'i yuqori qirrasining vertikalga nisbatan holatini aniqlovchi burchak quyidagi ifoda bo'yicha aniqlanadi

$$\theta_e = 180^{\circ} - (\varphi + \varepsilon) - (\delta + \lambda), \quad (8)$$

bunda ε – rotorli baraban markaziga nisbatan OAB burchak, $^{\circ}$; δ – poya vertikalga nisbatan OAB burchak, $^{\circ}$ (MN chiziq).

Pichoq tig'i pastki qirrasining vertikalga nisbatan holatini aniqlovchi burchak quyidagi ifoda bo'yicha aniqlanadi

$$\theta_n = \theta_e - \eta, \quad (9)$$

bunda θ_n va θ_e – pichoq tig'ining yuqori va pastki qirrasini holati burchaklari.

Pichoq tig'ining absolyut tezligi $\vec{V}_{a\delta c}$ ning qiymati quyidagicha aniqlanadi:

$$\vec{V}_{a\delta c} = \sqrt{(-\dot{\gamma}AB \cos(\varphi + \varepsilon + \delta) + \omega OB \cos(\varphi + \varepsilon))^2 + V_M^2 + (-\dot{\gamma}AB \sin(\varphi + \varepsilon + \delta) + \omega OB \sin(\varphi + \varepsilon))^2}, \quad (10)$$

α burchak yo'nalishi esa

$$\alpha = 90^{\circ} - \arctg \frac{V_y}{V_x}, \quad (11)$$

bunda V_x va V_y – absolyut tezlikning OX , OY koordinata o'qlaridagi proyeksiyalari.

O'rnatilish burchagi (pastki qirra va kesish yo'nalishi orasidagi burchak) quyidagi ifoda bo'yicha aniqlanadi

$$\gamma_y = \theta_n - \alpha. \quad (12)$$

Oldingi burchak (yoyning yuqori qismi bilan tig'ning harakat yo'nalishiga tushirilgan perpendikulyar orasidagi burchak) burchaklar ayirmasi sifatida quyidagi ifoda bo'yicha aniqlanadi


$$\varphi_n = 90^{\circ} - \eta - \alpha. \quad (13)$$

Nazariy hisob-kitoblar shuni ko'rsatadiki, ozuqabop cho'l o'simliklari poyasining faol kesish zonasi $\varphi + \varepsilon \approx -10^{\circ}$ da boshlanadi. Faol kesish zonasi $\varphi + \varepsilon = 60^{\circ}$ tugaydi deb qabul qilamiz. Bizning sharoitimizda o'simliklarni uning pastki qismidan kesish ahamiyatli hisoblanadi.

Sirpanuvchi kesish burchagini asoslash. 8-rasmda qiya kesish burchagi (sirpanuvchi kesish) yoki kesadigan pichoqning kesish burchagi deb ataladigan kesish burchagi α_c bo'lgan parallelogramm shaklidagi kesadigan pichoq ko'rsatilgan.

Poyani to'g'ri harakat bilan qirqish katta kuch talab qiladi, shu bilan birga, xuddi shunday qirqimni sirpanish harakatidan foydalangan holda kichik kuch bilan olish mumkin.

Kesadigan pichoq tig'i bo'ylab o'simlikni S_k siljitishda poyani qirqish uchun talab etiladigan kuchlanishlar orasidagi P_n bog'lanish quyidagi tenglama ko'rinishida



P_K – urinma kuch; P_H – normal kuch;
 α_c – qiya kesish yoki sirpanuvchi kesish burchagi; $\vec{V}_{a\bar{o}c}$ – kesadigan pichoqning tezligi

8-rasm. Qiya yoki sirpanuvchi kesish bilan parallelogramm shaklidagi kesadigan pichoq sxemasi

bunda A – o‘zgarmas xususiyatlarga ega bo‘lgan muayyan pichoq va muayyan material (poya) uchun doimiy qiymat (konstanta); $\vec{V}_{a\bar{o}c}$ – pichoq tig‘ining mutlaq tezligi; b – poyaning qalinligi, m; ρ – poyaning zichligi, kg/m³; E – poyaning elastiklik moduli, Pa; k_e – pichoqning poyaga urilishidagi tiklanish koeffitsienti.

Bu yerdan $\alpha_c = \arctg \frac{1}{\sqrt{2}}$ yoki $\alpha_c = 35^\circ 30'$. O‘tkirlanish burchagi $\eta = 35^\circ 30'$

bo‘lgan tig‘ uchun mavjud ma‘lumotlarni aproksimizatsiya qilamiz va o‘tkirlanish burchagining kerakli qiymatigacha bashorat qilamiz.

Ma‘lumotlarga ko‘ra, η o‘tkirlanish burchagi va ε_c sirpanish koeffitsientining turli qiymatlariga k_1 va k_2 koeffitsientlarning turli qiymatlari mos keladi. Birinchi koeffitsient k_1 uning qiymatiga mos ravishda sirpanish koeffitsiyenti ortganda o‘tkirlanish burchagining kinematik transformatsiyasi hisobiga qirqish kuchi qay darajada kamayishini ko‘rsatadi. Ikkinchisi k_2 ε_c koeffitsiyentning ortishi bilan ishqalanish qarshiligining normal yo‘nalishdan tangensial, tig‘ qirrasining arralash ta‘siriga ko‘chishi va boshqalar kabi sirpanuvchi kesishning boshqa omillari hisobiga kesish kuchi kamayadigan ulush qay darajada oshishini ko‘rsatadi.

Ushbu koeffitsientlarning tengligi ($k_1 = k_2 = 0,5$) kesish kuchining pasayishi jarayonida o‘tkirlanish burchagining o‘zgarishi effekti ham, sirpanuvchi kesishning boshqa omillari effekti ham bir xil darajada ishtirok etadigan shartlarni tavsiflaydi. Bunday shart $\eta = 60^\circ$ li tig‘ uchun sirpanish koeffitsienti $\varepsilon_c = 2,366$ ning qiymati bo‘ladi; $\eta = 50^\circ$ li tig‘ uchun $\varepsilon_c = 1,701$ ning qiymati va $\eta = 40^\circ$ uchun $\varepsilon_c = 1,077$ ning qiymati bo‘ladi. O‘tkirlanish burchagi $\eta = 35^\circ 30'$ bo‘lgan tig‘ uchun mavjud ma‘lumotlarni approksimizatsiya qilamiz va ularni o‘tkirlanish burchagining kerakli qiymati uchun bashorat qilamiz (9-rasm).


Grafik tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘tkirlanish burchagi $\eta = 35^\circ 30'$ bo‘lgan tig‘ uchun sirpanish koeffitsientining $\varepsilon_c = 0,75$ ratsional qiymati $\alpha_c = 36^\circ 54'$ sirpanish burchagiga mos keladi. Turli materiallar uchun kesish jarayonida sirpanish burchagining optimal qiymati sirpanish burchagi qiymatining chegarasida $\alpha_c = 30 - 50^\circ$ yotadi.

taklif etildi:

$$P_H^3 S_k = A, \quad (14)$$

A – parametr qanchalik katta qiymatga ega bo‘lsa, poyani kesish shunchalik sifatli bo‘ladi. Chunki bu parametrning kattaroq qiymati uchun normal zo‘riqishning kattaroq qiymati yoki katta ko‘chish mos keladi. Shuning uchun quyidagi maksimizatsiya masalasini yechamiz: parametr maksimal qiymatga ega bo‘ladigan A burchakni aniqlaymiz. Kichik o‘zgartirishlardan keyin hosil qilamiz

$$A = \left(\frac{m\vec{V}_{a\bar{o}c}}{2b\sqrt{\rho/E}} \cdot \frac{1+k_e}{1-k_e} \right)^3 \vec{V}_{a\bar{o}c} b \cos^2 \alpha_c \sin \alpha_c, \quad (15)$$




9-rasm. Sirpanish koeffitsienti ε_c ning kesadigan pichoqning o'tkirlanish burchagi η ga bog'liqligi

Dissertatsiyaning “**Eksperimental tadqiqotlarni o'tkazish usullari va natijalari**” deb nomlangan to'rtinchi bobida cho'l-yem xashak o'simliklari poyalarini o'rish uchun kesadigan pichoqlarning tajribaviy asoslash bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarning natijalari keltirilgan.

Tajribalar kesish barabaniga novdalarni 1,66 – 2,08 m/s uzatish tezliklarida o'tkazildi.

Pichoqning kesish burchagi 20° dan 40° gacha ortishi bilan yantoq o'simligi poyalarining parchalanish darajasi mos ravishda 42 – 14 % va 48 – 19 % gacha, shuvoqda esa mos ravishda 45 – 18 % va 52 – 23 % gacha kamayishi kuzatildi. Tajriba pichog'ining kesish burchagi 40° dan 50° gacha ortishi bilan yantoq poyasining parchalanish darajasi 14 – 16 % va 19 – 20 % gacha, shuvoq poyasining parchalanish darajasi 18 – 23 % va 20 – 23 % gacha kamaydi (10-rasm).




1 – 1,66 m/s; 2 – 2,08 m/s

10-rasm. Yantoq (a) va shuvoq (b) poyalarining parchalanish darajasi P ni kesish burchagi α_c ga bog'likligi grafigi

Buning asosiy sababi quyidagilardan iborat: eksperimental pichoqlar bilan o'simlik poyasini kesish burchagi 20° dan 30° gacha bo'lganda poyaning eng yuqori darajada parchalanishi hosil bo'ladi, ya'ni o'simlik poyasining yedirilishi sodir bo'ladi. Natijada poyalar to'liq kesilmasdan maydalanish holati kuzatildi. Yantoq va shuvoq poyalarini kesishda tajriba pichog'ining kesish burchagini 40° dan 50° gacha oshirilganda o'simlik poyalarini eng kam parchalanish darajasi bilan kesishni ta'minladi. Yantoq va shuvoq poyalarining parchalanish darajasi bo'yicha olingan natijalar agrotexnik talablarga mos keladi.

O'tkirlanish burchagi to'g'ridan to'g'ri kesiladigan poyaning sifatiga va qo'yiladigan agrotexnik talablarga ta'sir qiladi. Kesish barabaniga poyalarni uzatish tezligi 1,66 – 2,08 m/s bo'lganda tajriba pichog'ining o'tkirlanish burchagi 25° dan 45° gacha ortishi bilan yantoq poyalarining parchalanish darajasi mos ravishda 11 – 22 % va 15 – 27 % gacha, shuvoqda esa 18 – 36 % va 21 – 39 % gacha ortishi kuzatildi. Tajriba pichog'ining o'tkirlanish burchagini 45° dan 55° gacha ortishi bilan yantoq poyasining parchalanish darajasi mos ravishda 22 – 40 % va

27 – 43 % gacha, shuvoqning esa 36 – 50 % va 39 – 56 % gacha keskin ortib borgan (11-rasm).



11-rasm. Yantoq (a) va shuvoq (b) poyalarining parchalanish darajasi P ni tajribaviy pichoqning o'tkirlanish burchagi η ga bog'likligi grafigi

Buning asosiy sababi shundaki, o'tkirlanish burchagi kamayishi bilan pichoq o'tkirlashadi va poyaning eng kam darajada parchalanishi kuzatiladi, lekin uni o'tkirlash zaruriyati tez-tez paydo bo'ladi. Pichoqning o'tkirlanish burchagi 55° bo'lganda poyani to'liq kesish imkoniyati yaratilmaydi. Bundan tashqari o'tkirlanish burchagi 25° bo'lganda poyani kesish uchun katta kuch talab qilinadi. Pichoqni o'tkirlanish burchagi 35° bo'lganda poyani o'rish uchun eng maqbul hisoblanadi. Yantoq va shuvoq poyalarining maydalanish darajasi bo'yicha olingan natijalar agrotexnik talablarga javob beradi.

Kesadigan pichoqlarning kesish va o'tkirlanish burchaklarining maqbul quymatlarini asoslash uchun Xartli-3 rejasi bo'yicha ko'p omilli eksperimentlar o'tkazildi. Bunda omillar quyidagicha shartli belgilandi: X_1 – kesish burchagi, X_2 – o'tkirlanish burchagi, X_3 – agregatning harakat tezligi.

Ko'p omilli eksperimentlarni o'tkazishda baholash mezoni sifatida cho'l ozuqabop o'simliklari poyasining parchalanish darajasi (Y_1 , %) va o'rib olingan ozuqa massasining yig'ish to'liqligi (Y_2 , %) qabul qilindi.

Tajribalarda olingan natijalar bo'yicha mezonlarni adekvat ifodalavchi ushbu regressiya tenglamalari olindi:

ozuqabop o'simliklari poyasining parchalanish darajasi bo'yicha, %:

$$Y_1 = 25,807 + 11,316 X_1^2 - 1,917 X_1 X_3 + 6,482 X_2^2; \quad (16)$$

o'rib olingan ozuqa massasini yig'ish to'liqligi bo'yicha, %:

$$Y_2 = 91,140 + 1,461 X_2 - 9,667 X_1^2 - 5,167 X_2^2 + 0,900 X_2 X_3. \quad (17)$$

(16) – (17) regressiya tenglamalari birgalikda " Y_1 " mezoni cho'l-ozuqabop o'simliklar poyasining parchalanish darajasi (o'simlik umumiy uzunligining 50 % dan oshmasligi), " Y_2 " mezoni esa 70 % dan kam bo'lmasligi shartlaridan yechildi. Agregatning 1,66 – 2,08 m/s harakat tezliklarida kam energiya sarflagan holda talab darajasidagi ish sifatini ta'minlash uchun kesadigan pichoqning kesish burchagi mos ravishda 40° va pichoq tig'ining o'tkirlanish burchagi $35^\circ - 37^\circ 18'$ bo'lishi lozimligi

aniqlandi. Omillarning ushbu qiymatlarida kesadigan pichoqning kesish burchagi 40° ni, pichoq tig'ining o'tkirlanish burchagi esa $37^\circ 18'$ ni tashkil etdi.

Dissertatsiyaning **“Eksperimental pichoqlar bilan jihozlangan KPP-3 cho'lbop o'rgich-to'plagichning xo'jalik sinovlari natijalari va uning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari”** deb nomlangan beshinchi bobida asoslangan shakl va parametrlarga ega bo'lgan kesadigan pichoqlar bilan jihozlangan cho'lbop o'rgich-to'plagich tajriba nusxasining qisqacha texnik tavsifi, xo'jalik sinovlarining natijalari hamda texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari keltirilgan.

Sinovlarda kesadigan pichoqlar bilan jihozlangan KPP-3 cho'lbop o'rgich-to'plagichning tajriba nusxasi belgilangan texnologik jarayonni ishonchli bajardi, uning ish ko'rsatkichlari unga qo'yilgan talablarga to'liq mos keldi.

Tavsiya etilayotgan kesadigan pichoqlar bilan jihozlangan cho'lbop o'rgich-to'plagich qo'llanilganda bir gektar maydonda ozuqabop cho'l o'simliklari poyalarini parchalanish darajasi 1,88 % ga kamaygan va yig'ish to'liqligi 98,5 % ga oshgan. Buning evaziga bitta agregatni qo'llashdan olinadigan yillik iqtisodiy samara 13 629 635,16 UZS ni tashkil etadi.

XULOSA

“Cho'lbop o'rgich-to'plagich kesadigan pichog'ining shakli va parametrlarini asoslash” mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida quyidagi xulosalar taqdim etiladi:

1. Ozuqabop cho'l o'simliklari poyasini o'rishda mavjud texnologiya va texnika vositalaridan foydalanilganda, o'simlik poyasining sifatsiz kesilishi, bo'ylama yoriq hosil qilib, keyinchalik ko'p o'rimli o'simliklarning o'sish jarayonini yomonlashtiradi, bu esa o'simlikning turli kasallik o'choqlarini hosil bo'lishiga hamda yaylovlarning to'liq degradatsiyasilanishiga olib keladi.

2. O'tkazilgan taqqoslov sinovlarining natijalariga ko'ra, cho'l ozuqabop o'simliklar poyasini sifatli o'rishda o'simlik poyasining kam parchalanishini va uning keyingi o'sishini ta'minlash hamda yaylovlarni degradatsiyasiga olib keluvchi turli kasalliklarning kelib chiqishini oldini olish uchun o'tkir tig'li kesadigan pichoqlarni qo'llash maqsadga muvofiq.

3. O'tkazilgan nazariy tadqiqotlar natijasida shuvoq va yantoq o'simliklari poyalarini kesadigan pichoqlarning o'simliklar bilan o'zaro ta'sirlashish jarayoni va parametrlarini aniqlash imkonini beradigan analitik bog'lanishlar keltirilib chiqarildi va ular bo'yicha quyidagi natijalar olindi:

pichoqning radial yo'nalishdan maksimal og'ishi $0,37$ rad, o'simliklarni kesish zonasida pichoqning mutlaq tezligi 28 m/s, poyalarni kesish burchagining optimal qiymati $30 - 35^\circ$ oralig'ida bo'lishi lozim.

4. O'tkazilgan tajribaviy tadqiqotlar natijalariga ko'ra, kesish barabaniga poyalarni uzatish tezligi $1,66 - 2,08$ m/s hamda kesadigan pichoqning kesish burchagi 40° va tig'ining o'tkirlanish burchagi $37^\circ 18'$ bo'lganda cho'l-ozuqabop o'simliklar poyalarining parchalanishi agrotexnik talab darajasida bo'lishi ta'minlandi.

5. Asoslangan tur va parametrlarga ega bo'lgan kesadigan pichoqlar bilan jihozlangan cho'lbop o'rgich-to'plagich qo'llanilganda bir gektar maydonda ozuqabop cho'l o'simliklari poyalarini parchalanish darajasi 1,88 % ga kamaygan va yig'ish to'liqligi 98,5 % ga oshgan. Buning evaziga bitta agregatni qo'llashdan olinadigan yillik iqtisodiy samara 13 629 635,16 UZS ni tashkil etadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.05/13.05.2020.Т.112.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ
ИНСТИТУТЕ МЕХАНИЗАЦИИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА**

**НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ МЕХАНИЗАЦИИ
СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА**

ХАЗИЕВ САЛАВАТ АСХАТОВИЧ

**ОБОСНОВАНИЕ ФОРМЫ И ПАРАМЕТРОВ РЕЖУЩЕГО НОЖА
ПУСТЫННОГО КОСИЛКА-КОПНИТЕЛЯ**

**05.07.01 – Сельскохозяйственные и мелиоративные машины. Механизация
сельскохозяйственных и мелиоративных работ**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за В2024.4.PhD/T2933.

Диссертация выполнена в Научно-исследовательском институте механизации сельского хозяйства

Аннотация диссертации на трех языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещен на веб-странице по адресу www.draft.uz и Информационно-образовательном портале «ZiyouNet» (www.ziyounet.uz)

Научный руководитель:	Тельбаев Алтыбай Ермайбаевич доктор технических наук, старший научный сотрудник
Официальные оппоненты:	Нарзаев Даврон Рустамович доктор технических наук, профессор Алимова Феруза Абдухадировна кандидат технических наук, профессор
Ведущая организация:	Ташкентский государственный аграрный университет

Защита диссертации состоится 12 06 2025 г. в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc-05/13.05.2020.T112.01 при Научно-исследовательском институте механизации сельского хозяйства (Адрес: 110800, Ташкентская область, Янгйульский район, пос. Гульбахор, ул. Самаркандская, 41. Тел. (+99871) 601-07-04, e-mail: qabulxola@qshmti.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Научно-исследовательского института механизации сельского хозяйства (регистрационный номер 119) (Адрес: 110800, Ташкентская область, Янгйульский район, пос. Гульбахор, ул. Самаркандская, 41. Тел. (+99870) 601-07-04, e-mail: qabulxola@qshmti.uz)

Аннотация диссертации прислана 12 05 2025 года.
(Протокол рассылки № 37 от 12 05 2025 года)



А. Тухтасуиев
Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

Б.П. Артыкбаев
Учтовый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, PhD по техническим наукам, с.и.с.

Р.Р. Худайхудайев
Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, к.т.н., с.и.с.

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктор философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Ведущее место в мире занимает разработка и применение ресурсосберегающих, с высоким качеством работы и производительностью машин для уборки пустынно-кормовых растений, применяемых при освоении аридных пастбищ и получении с них высоких урожаев. Учитывая, что в настоящее время в мире пустынно-кормовые растения ежегодно выращиваются на площади 20,0 млн. гектаров¹, разработка энерго-ресурсосберегающих, высокопроизводительных и с высоким качеством работы машин для их уборки является одной из важных задач. В связи с этим большое внимание уделяется разработке и применению машин для уборки пустынно-кормовых растений.

В мире ведутся научно-исследовательские работы по созданию новых ресурсосберегающих технологий и технических средств для уборки пустынно-кормовых растений на естественных пустынных пастбищах, а также по совершенствованию существующих машин в направлении ресурсосбережения. В этом направлении разработка ресурсосберегающих машин, обеспечивающих качественный срез стеблей растений на естественных пустынных пастбищах и проведение целевых научных исследований по обоснованию оптимальных параметров их рабочих органов является одной из актуальных задач.

В сельскохозяйственном производстве нашей республики осуществляются широкомасштабные мероприятия по снижению затрат труда и энергии, экономии ресурсов, выращиванию сельскохозяйственных культур на основе передовых технологий и разработки высокопроизводительных сельскохозяйственных машин, в том числе особое внимание уделяется разработке технических средств, обеспечивающих качественное выполнение всех технологических процессов при уборке стеблей пустынных кормовых растений на естественных пустынных пастбищах с минимальными затратами энергии. В Стратегии развития сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020-2030 годы определены задачи, в том числе «...внедрение механизмов снижения государственного участия и повышения инвестиционной привлекательности в сфере, предусматривающих увеличение потока частного инвестиционного капитала для поддержки модернизации, диверсификации и устойчивого роста сельского хозяйства и пищевой промышленности, рационального использования земельных и водных ресурсов, повышения производительности труда в фермерских хозяйствах, улучшения качества продукции»². В реализации данных задач, в частности, важное место занимает проведение целенаправленных научных исследований по разработке пустынного косилка-копнителя, обеспечивающего минимальную потерю пустынных растений при уборке, обоснованию параметров режущих ножей, обеспечивающих качество работы на уровне агротехнических требований при минимальных затратах энергии.

¹ <http://www.nrcs.usda.gov>

² Указ Президента Республики Узбекистан № УП-5853 от 23 октября 2019 года «Об утверждении Стратегии развития сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020-2030 годы».

